

JINSIY BUZILISHLAR SHAXSDA IJTIMOYIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA**Elov Ziyodullo Sattorovich**Osiyo xalqaro universiteti dotsenti,
Psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: maqolada deviant xulq-atvorli o'smirlar shaxsida uchraydigan ruhiy-jinsiy buzilishlarning ijtimoiy psixologik sabablari va uning muammolari ilmiy tahlillarda muhokama qilingan. Turli olimlarning ushbu muammo yuzasidan fikrlari va qarashlariga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, deviant xulq-atvorli o'smir shaxsida ushbu muammoning yuzaga kelishi sabab bo'luvchi asosiy sababalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: deviatziya, jinsiy mayl, buzilish, libido, agressiya, tajovus, shaxs, diskomfort, ozorlanish, emotsiya, nafrat, transseksualizm – gonadalar, urogenital transseksualizm, gonadalar, urogenital, onanizm, autoidentifikatsiya, erogen zona, ehtiyoj, manifestatsiya, ereksiya.

Kirish: Ruhiy-jinsiy deviatziyalar – jinsiy mayl yo'nalishi yoki uni qondirish usullarining buzilishidir. Ilgari ularga jinsiy axloqning mazkur jamiyatdagi umume'tirof etilgan modelidan farq qiluvchi har qanday jinsiy ehtiyoj va harakatlarni kiritishgan, zero ular nafaqat buzilishlar hisoblangan, balki ma'naviy jihatdan qoralangan ham. Hozirda ko'pgina mutaxassislar jinsiy deviatziyalarning faqat bir qismiga aniq nuqson deb qaraydilar. Ruhiy-jinsiy deviatziya deganda libidoning sifatli o'zgarishi nazarda tutiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qator olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar jinsiy buzilishlarning yuzaga kelishida agressiya sabab qilib ko'rsatilganligini ko'rishimiz mumkin. Agressiya atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, «aggređi» – «tajovuz qilmoq» ma'nosini anglatadi. Psixologiyada «agressiya» atama- siga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, X.Delgado, A.A.Bass, L.M.Semenyuk, G.Parens, A.Bandura, R.Uolters, Yu.Mojginskiylar tomonidan agressiya salbiy baholanadi[1].

L.Bender agressiyani insonning o'z-o'zini namoyon qilishga intilishidir, deb ta'kidlaydi. Motivlashtirish nuqtai nazaridan, L.Bender agressiyani ixtiyoriy va instrumental turlarga ajratadi. R.Beron va D.Richardson aggressivlikning rivojlanishiga olib keluvchi shaxs xususiyatlarini quyidagicha ifodalagan:

- impulsiv xulq ko'rinishlarining namoyon bo'lishiga moyillik, emotsional ta'sirchanlik – diskomfort, o'z-o'zidan qoniqmaslik, ozorlanish hislari, psixologik qulaylikning yo'qotilishi;
- turli o'y-fikrlarga berilish (instrumental agressiya), diqqatning buzilishi (emotsional agressiya);
- dushmanlik yondashuvi – barcha stimullarni ularning tabiatidan qat'iy nazar o'zi uchun xavfli, deb qabul qilish[2].

T.G.Rumyanseva, I.B.Boyko agressiyani ijtimoiy xulq ko'rinishi deb hisoblaydilar. Bu borada agressiyani keltirib chiqaruvchi ikki holat tavsiflanadi:

- qurbon uchun vaziyatlar natijasi xavfli deb hisoblanganda;
- qabul qilingan ijtimoiy me'yorlarga amal qilinmaganda.

Shaxs xususiyatlari emotsional tanglik holatlarida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Shuning uchun psixologlar individni frustratsiya jarayonida o'rganishga alohida e'tibor qaratadilar[3].

G'.B.Shoumarov fikriga ko'ra, o'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq.

Tahlil va natijalar (analysis results). Libido (lotincha libido - mayl, istak, intilish) – jinsiy mayl, jinsiy aloqaga intilish hoxishidir. O'zida miqdoriy o'zgarishlarni ifodalovchi frigidlik,

satiriazis, nimfomaniya, erotomaniya va jinsiy maylning boshqa turlari ularga kirmaydi. Onanizm to'g'risida bir xil ma'nodagi fikrlar mavjud emas. U shunchalik tarqalib ketganki, ko'pchilik mualliflar uni jinsiy rivojlanishning buzilishi sifatida tavsiflashdan bosh tortadilar[4].

Onanizm (bibliyada keltirilgan personaj Onan nomi bo'yicha) – erogen zonalarni mexanik qo'zg'atish yoki ruhiy to'liqlantirish yo'li bilan o'zini jinsiy qanoatlantirishdir.

Ruhiy-jinsiy deviatsiya rivojlanishining quyidagi turlar ajratiladi:

Transseksualizm – gonadalar, urogenital yo'llari va ikkilamchi jinsiy belgilarning to'g'ri shakllanganiga qaramay o'zini qarama-qarshi jinsga tegishli deb hisoblash.

Bugungi kunda transseksualizmning tarqalishi holati aholining 1:37 000 qismiga to'g'ri kelmoqda, vaholanki u erkaklarda 2-3 marta ko'p uchraydi[5].

1-jadval

Aholisi o'rtasida transseksualizmning tarqalishi holati

(har 100.000 aholiga nisbatan)

davlatlar	erkaklar o'rtasida jinsni o'zgartirish	ayollar o'rtasida jinsni o'zgartirish	farqlar
Singapur	35	12	3.0:1
AQSh	1.0	0.25	4.0:1
Shvesiya	2.7	0.97	2.8:1
Angliya	5.0	2	2.5:1
Avstraliya	4.7	0.62	6.1:1
Sh.Irlandiya	2.8	1.0	3.0:1


Bu ruhiy-jinsiy rivojlanishdagi og'ish jinsiy axloq uchun javobgar bo'lgan miya tuzilishi differensirovkasidagi, birinchi navbatda, gipotalamusning qo'pol buzilishi bilan bog'liq bo'lib, to'g'ri jinsiy tarbiya olganiga qaramasdan, autoidentifikatsiyaning buzib ko'rsatilishiga va boshqa jinsga mansubligini his qilishga olib keladi. Jinsiy differensirovka buzilishining ifodasi keng doiralarda o'zgarishi mumkin. Jinsiy o'zini-o'zi anglash shakllanishi bosqichida bunday bolalar o'zlarini qarama-qarshi jins nomlari bilan ataydilar, qarindoshlaridan birovlarining oldida ularni o'g'il bola emas, balki qiz bola deb aytishlarini, yoki aksincha, iltimos qilishadi. Bolalar hech bo'lmasa, jinsiy munosabatlardagi betaraf (neytral) bo'lgan kiyimda yurish huquqini olishga harakat qiladilar, lekin qarama-qarshi jinsning kiyimlarini kiyishni maqsad qilib qo'yadilar. Dastlabki vaqtda bunday axloq kattalar tomonidan bolalarcha hazil, tentaklik yoki injiqlik deb qabul qilinadi. Holatning jiddiyliги va ko'ndirishlarning samarasizligini anglagach, ota-onalar yanada «ta'sirchan» choralarni qo'llashga harakat qiladilar, lekin, odatda maqsadga erisha olmaydilar. Aslida transseksual bolalarning hayoti - bu doimiy, fojiga to'la bo'lgan o'z «Men»i bilan jinsini o'zgartirish, shaxsiy jinsiy o'zini anglash va o'zining atrofdagilar tomonidan qabul qilinishi o'rtasida muvofiqlikka erishish huquqi uchun kurashdir. Jinsiy autoidentifikatsiyaning buzilishi ifodalangan barcha holatlarda transseksualizm 5 yoshgacha manifestatsiya (namoyish) qiladi. Axloqning jinsiy roli shakllanishi bosqichida, ko'pincha, kattalarning azoblariga zid ravishda, boshqa jinsga mansublikni his qilish jinsiy roldagi axloqning tegishli shakllariga burkanadi va transseksualizm namoyon bo'lish uchun ko'p imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Ruhiy-jinsiy yo'nalishlar shakllanishining bosqichi transseksualizm da to'g'ri jinsiy rivojlanishdan ko'ra yanada murakkabroq va mas'uliyatliroqdir.

1-rasm

Aholisi o'rtasida transseksualizmning tarqalishi holati

(dunyo miqyosida 2019 yil holati)



Uning boshlanishi ikkilamchi jinsiy belgilar va jinsiy a'zolar rivojlanishining cho'qqisiga yetgan, shuningdek, jinsiy mayl shakllanishi sodir bo'ladigan pubertatli davrga to'g'ri keladi. Jinsiy bezlarning faol ishlashi boshlanishi bilan qarama-qarshi jinsga mansublik hissi keskin ortadi, «begona» maydondagi hayot qiynoqqa aylanadi, boshqa jinskiyimini kiyish doimiy tus ola boshlaydi. Jinsiy a'zolar va ikkilamchi jinsiy belgilarning rivojlanishi nihoyatda keskin qabul qilinadi, chunki ular «o'zga» jinsga mansublikdan dalolat beradi va ular «noto'g'ri» axloqining dalili bo'lib xizmat qiladi. Qizlarni sut bezlari kattarishi xavotirga soladi va ular ko'kragini mahkam siqib bog'laydilar. Kechasi ularga muz bog'lab qo'yadilar, «sun'iy muz» yoki xloretil bilan muzlatib qo'yadilar. Yigitlar jinsiy a'zolar o'sishi, yuzlarida tuklar paydo bo'lishi, ilk ereksiyalardan g'oyatda tashvishlanadilar. Ereksiyani bartaraf qilish uchun jinsiy a'zolarini bog'lab qo'yadilar va butun bint hamda arqonlar yordamida oyoqlar oralig'iga mahkamlab qo'yadilar. Ayrim holatlarda transseksual o'spirinlar o'zini o'zgartirishga: jinsiy a'zosini kesib tashlash yoki uni to'liq bichib qo'yishga qaror qilishadi.

Shu o'rinda, Z.Freydning psixoanalizining mohiyatini yana bir bor o'rganish lozimligini bugungi zamonaviy psixologiya ko'rsatib bermoqda. Uning fikricha ongsiz psixik jarayonlar va motivatsiyani diqqat markaziga qo'yadi. Inson xulqi asosini lazzat olish (libido)ga nisbatan, ayniqsa, ilk bolalikda paydo bo'lgan seksual (jinsiy) mayl tashkil qiladi degan g'oyani ilgari surib, odam xulqdagi ijtimoiylik, onglilikni inkor etadi. Ongdan unga muvofiq kelmaydigan (asosan, seksual) mayllar va ruhiy kechinmalarni siqib chiqarish psixoanalizda har xil nevrozlar va turli patologik hodisalar (unutish, yanglish harakatlar va h. k.)ning asosiy manbai sifatida qaraladi[6].

Deyarli hamma yorqin transseksuallar har qanday, hatto aldov yo'li bilan bo'lsa ham jinsini o'zgartirishga intiladilar. Ruhiy-jinsiy deviatsiyaning shakllanishi bosqichida faqat pasportdagi jinsni o'zgartirishning o'zi yetarli bo'lmaydi va transseksualning atrofdagilar tomonidan uni o'zi «istagan» jins vakili sifatida to'liq e'tirof etishlarini talab qiladilar. Jinsiy maylning shakllanishi aksariyat hollarda jinsiy o'zini-o'zi anglashga mos keladi, ya'ni jinsiy moyillik erkakcha autoidentifikatsiyali ayollarda ayollarga nisbatan, ayollarcha autoidentifikatsiyali erkaklarda esa - erkaklarcha yuzaga keladi. Tashqaridan bunday moyillik gomoseksuallik kabi qabul qilinadi, lekin mazmunan bunday emas, zero jinsiy o'zini o'zi anglash bilan kelishgan holda u qarama-qarshi jinsga qaratilgan. Erkak-transseksuallar sherik sifatida geteroseksual erkaklarni afzal ko'rishadi va ularning jinsiy faolligi gomoseksual ekanligi

to'g'risidagi fikrlarni rad etishadi. Ammo ayollar bilan aloqa qilish ular tomonidan g'ayritabiiy holat, masalan, gomoseksuallik kabi qabul qilinadi. Aksariyat transseksuallar o'zlarini mansub jins vakillari bilan jinsiy aloqaga kirishadilar. Jinsiy mayl qarama-qarshi jins vakillarida ham shakllanishi mumkin, lekin, garchi tashqaridan geteroseksual bo'lib ko'rinsada, uni gomoseksual deb baholash lozim[7,8].

Xulosa va takliflar. Ehtiyoj va atrofda g'ilarning fikriga bog'liqlik o'rtasidagi o'zining «nuqsoni» bilan doimiy kurash shaxsning disgarmoniyasiga, uning hatto ruhiy-nuqsonli malolliklarsiz patoxarakterologik shakllanishiga olib keladi. Bunday ayollar va erkaklarning katta qismi qarama-qarshi jinsga xos bo'lgan ishga moslashadi. Ayollar shunchaki erkakcha kasbni emas, balki ulardan eng nufuzlilari bo'lgan: uchuvchilar, uzoq masofalarga suzuvchilar, geologlar, tergovchilar, jarrohlar va hokazo kasblarni tanlashadi. Bunda ular nafaqat o'zligini namoyon qilish, balki "teng huquqlarda" erkaklar jamiyatida aylanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kasb ularning erkakcha odatlari, o'zlarini tutishlari, kiyinish uslublariga mos bo'ladi. Transseksual erkaklarga ijtimoiy moslashish ayollarga nisbatan qiyinroq bo'ladi. Bolalikdan ularning nazokatligi pichinglarga, mensimaslikka va hatto tengdoshlari tomonidan ta'qib qilinishiga olib keladi. Nazokatli o'g'il bola tengdoshlarining ierarxik zinapoyasida eng past pog'onaga ega bo'ladi, «ikkinchi navli» odam bo'lib qoladi. Ular kelgusida tanlaydigan ayollarning kasblari nufuzli emas va erkaklarning hayratini hamda pichinglarini yuzaga keltirishda davom etadi. Biroq qizlar, kelgusida esa ayollar ularga xayrixoh munosabatda bo'ladi, «kuchli» jins kamchiliklaridan xoli bo'lgan bunday yumshoq tabiat va ko'ngilchan erkaklarni o'z jamoalariga jon deb qabul qiladilar.

Transseksualizmni differensiyali diagnostika qilishning qiyinchiliklari shu bilan bog'liqlik, bemorning jinsini o'zgartirish haqidagi iltimosi shifokorlar tomonidan bema'ni deb, ruhiy kasallikning ko'rinishi kabi qabul qilinadi. Jinsni o'zgartirish haqidagi g'oyat qimmatli va hatto bema'ni g'oyalar haqiqatda turli ruhiy buzilishlar natijasida, ko'pincha paranoyali sindrom va bosh miya organik jarohatlanishi holatlarida ham uchraydi.

Intersekslarning kuzatishlaricha, erkak jinsini ayol jinsiga o'zgartirishdan ko'ra, ayol jinsini erkak jinsiga o'zgartirish ancha osonroq ekan. «Erkakcha» yurishning o'ziga xos xususiyatlari uzoqroq saqlanadi va «ayollarcha» xususiyatlarga nisbatan tezroq o'zlashtiriladi. Erkaklar kiyimini kiyish odati ham osonroq yuzaga keladi. Erkak jinsidan ayol jinsiga o'tgan ayrim shaxslar, ayollar narsalarini orttirishadi, pariklar, shinonlar, hamma mumkin bo'lgan pardoz buyumlarini (kosmetikani) qurol qilib olishadi. 20-21 yoshdan keyin jinsni o'zgartirish maqsadida ijtimoiy sabablarga ko'ra qiyinlashadi: aksariyat individlar mutaxassislikka ega bo'lishgan, ma'lum ijtimoiy mavqega ega bo'lganlar va hokazo. Nafaqat hujjatlarni rasman almashtirish, balki turar joyini o'zgartirish (odatda boshqa shaharga ko'chib ketish), eski tanish-bilishlarga va qarindoshlar bilan uchrashuvlarga to'liq barham berish, yangi mutaxassislikka ega bo'lish va shu kabilar talab qilinadi. Avvalgi jinsda go'yoki ijtimoiy "o'lim" va yangi jinsdagi "tug'ilish" sodir bo'ladi[10,11].

Jinsini o'zgartirishga faol intiluvchi yorqin transseksuallar bunday imkoniyatni topa olmagan va ularning pasport bo'yicha jinslari va jinsiy o'zini-o'zi anglash o'rtasidagi nomuvofiqlik hal bo'lmagan holatlarni oldindan aytish noqulaydir. Bunday hollarda uzoq davom etadigan depressiv holatlar, o'z joniga qasd qilish fikri va urinishlar uchrab turadi. Jins o'zgartirishning barcha murakkabliklariga qaramay unga erishgan transseksuallar o'zlarini ancha yaxshi his qiladilar, jinsiy jihatdan moslashib hatto nikohga kira oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Agressiya v podrostkovom vozraste. – Sankt-Peterburg: «Piter», 2007; Semenyuk L.M. Psixologicheskie osobennosti agressivnogo povedeniya podrostkov i usloviya yego korreksii. – Voronej: «Nauchnaya kniga», 2010.
2. Beron R., Richardson D. Psixologiya chelovecheskoy agressii. – M.: «Vuzovskaya kniga». –S. 147.
3. Rumyanseva T.G., Boyko I.B. Ponyatie agressii i agressivnosti v podrostkovom vozraste. – Minsk: «Universitetskoe», 2002. –S. 72
4. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – T.: «O‘qituvchi»,2000. –24-b.
5. Z.S.Elov. Deviant xulq – atvorli o‘smirlarda kuzatiladigan psixologik o‘zgarishlarining yosh bilan bog‘liq xususiyatlari (Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy himoya ko‘rsatish markazi tarbiyalanuvchilari misolida). PEDAGOGIK MAHORAT. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 6. 72-75
6. Z.Elov. Deviant xulq-atvorli o‘smirlarda suitsidal holatlarni keltirib shiqaruvshi omillar:(Ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida). Pedagogik mahorat. Ilmiy jurnal. 2023
7. Z.S.Elov. Suitsidal xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o‘rganilishi: tahlillar va nazariyalar. Science and Education. 2023/10/30. 326-342
8. Z.S.Elov. Deviant hulq-atvorli o‘smirlar orasida suitsidal ahloq tushunchasi va ilmiy tahlillar. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar. 2023/1/9 150-157
9. Z.S.Elov. Suitsidal xulq-atvor haqida tahlillar va nazariyalar. PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR. 2023 y. 11-22
10. Z.Elov. Identifikatsiya jarayoni muammosining psixologiyada o‘rganilishi. ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR INTEGRATSIYASI. Ilmiy konferensiya to‘plami. 2023
11. Z.Elov. O‘z joniga qads qilish masalasi jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (12), 50-54
12. Z.Elov. Shaxsda fobiya holati va uning diagnostikasi. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (11), 66-74
13. Z.Elov. Suitsidal xulq-atvor haqida tahlillar va nazariyalar. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (10), 11-22
14. Z.S.Elov. Suitsidal xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o‘rganilishi: tahlillar va nazariyalar. 2023. Science and Education 4 (10), 326-342